

## **MORE DEVELOPMENT OF BANKS 'MONETARY, CRYPTO CURRENCY AND BLOCKCHAIN POLICY IN THE DIGITAL ECONOMY**

D B Farmonov

Master of the Department of Digital Economics, SamSU

A Z Jalilov

Master of the Department of Digital Economy, SamSU

### **Annotation:**

In the current context of the development of monetary and financial relations in the banking system of Uzbekistan, it is important to study the exchange and characteristics of blockchain and cryptocurrencies, which are their innovative forms.

**Keywords:** Banking, monetary policy, financial relations, blockchain and cryptocurrency, digital economy, bitcoin.

**Pul-kredit siyosati** - hukumatning pul muomalasi va kredit sohasida olib boradigan bosh yo‘li va mamlakat iqtisodiyoti barqarorligini va uning samarali faoliyatini ta’minlashga, pul tizimini lozim darajada mustahkam saqlab turishga qaratilgan chora-tadbirlari hisoblanadi.

Pul-kredit siyosati to`liq bandlik sharoitida yalpi milliy maxsulotni ishlab chiqarishga inflyatsiyaning ta`sirini kamaytirish yoki bartaraf etish maqsadida muomaladagi pul miqdorini o`zgartirishga qaratilgan chora-tadbirlar tushuniladi.

Pul-kredit siyosati bevosita va bilvosita vositalar orqali amalga oshiriladi. Bevosita vositalar moliyaviy institatlardagi moliyaviy aktivlar narxlari (foiz stavkalari)ni yoki ular hajmini to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqarish orqali olib boriladi. Markaziy bank tomonidan tijorat banklaridagi mavjud depozit ko‘rinishidagi pullarni hamda ular tomonidan beriladigan kreditlar narxlari va hajmi nazorat qilinadi. Bilvosita vositalar Markaziy bank tomonidan moliyaviy institutlar resurslari bozor mexanizmlari (majburiy zaxira talablari, ochiq bozordagi operatsiyalar, tijorat banklarini qayta moliyalash va Markaziy bankning hisob stavkasi, tijorat banklaridan depozitlarni qabul qilish va boshqalar) orqali iqtisodiyotdagi pul massasiga ta’sir etiladi.

Markaziy bank pul-kredit siyosatini olib borishda pul bozoriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zining boshqaruv vakolatlari yordamida va pul emissiyasi orqali ta’sir o‘tkazishi mumkin. Markaziy bank foydalanadigan vositalarning har biri foiz stavkalarining o‘sishiga, kreditlash va qarz olish hajmini kamaytirishga, lozim bo‘lganda foiz stavkalarini oshirishga yoki, aksincha, tushirishga

xizmat qiladi. Ochiq bozordagi operatsiyalar, majburiy eng kam zaxiralarning bo‘lishi, hisobga olish siyosati, valyuta siyosati pul-kredit siyosatining asosiy tarkibiy qismlarini tashkil etadi.

Pul kredit siyosati davlat tomonidan belgilanadi va uni Markaziy Bank amalga oshiradi. Uning yordamida xar qanday davlat mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta`minlash vazifasini xayotga tadbiq etadi.

Pul-kredit siyosatining uchta asosiy vositasi ajratib ko`rsatiladi:

1. Xisob stavkasi;
2. Majburiy zaxiralar normasi;
3. Ochik bozordagi operatsiyalar.

Markaziy bank ular yordamida pul yoki asosan bank depozitlari ko`rinishidagi pul massasiga yoki foiz stavkasiga ta`sir o`tkazadi, taklifini o`zgartiradi va shular orkali pul-kredit muomalasini tartibga solib turadi. O`zbekiston birinchilardan bo`lib Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida Blokcheyn texnologiyasini qonuniylashtirmoqda. Blokcheyn orqali onlayn ishlash imkoniyati juda ko‘p sohalarga qo‘l kelmoqda. Shu bois kelajakda ko‘p sohalar onlayn holatda blokcheyn tarmog‘idan foydalanishi mumkin.

Avvaliga Facebook, Instagram, YouTube, Twitter va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda shunchaki qiziqish, vaqt o`tkazish va ko‘ngilxushlik uchun ma’lumotlar joylagan bo‘lsangiz, endilikda bunday joylashtirishlar uchun Blokcheyn tarmog‘idan rag‘batlantiruvchi pul mukofotlarini olishingiz mumkin. Bularga misol sifatida steemit, golos.io, d.tube blokcheyn tarmoqlarini aytsak bo‘ladi.

Bundan tashqari, Blokcheyn tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlab turish maqsadida o‘zingizga server o‘rnatib, xohlagan tarmog‘ingizga qo‘shilishingiz, pul mukofotlari olsangiz bo‘ladi. Blokcheyn tarmog‘ini o‘zingizning texnik imkoniyatlaringiz bilan qo‘llab-quvvatlashingiz “Mayning” deb ataladi, ya’ni tarmoqdagi kelishilgan bir algoritm bilan tekshirib, xavfsizligini ta’minlab turish “Mayning” qilish deyiladi.

Bu kabi “Blokcheyn”, “Mayning”, “Ayrdrop”, “Baunti” va shu kabi yangi so‘zlar, tushunchalar endilikda hayotimizga juda tezlik bilan kirib keladi.

Valyuta qora bozorini endigina yo‘qotib, uning noqonuniy aylanmalari bilan kurashayotgan bir vaziyatda, yangi kriptovalyutalar bozorining shakllanishi iqtisodiyotimizga sezilarli ta’sir etmay qolmaydi. Kriptovalyuta birjalarini taqiqlash, to‘sinqo‘yish yoki sun’iy yo’llar bilan chegaralash Blokcheyn sohasining rivojiga ta’sir qiladi. Bunday kamchiliklarning oldini olish uchun Davlat o‘zining kriptovalyuta fondini shakllantirib, xalq bilan birgalikda investitsiya qilish va uni boshqarishni yo‘lga qo‘yishi lozim. O’zbekiston fuqarolari va yoshlari ham kriptovalyutalarga

investitsiya qilish va ularni boshqarish bilimini, madaniyatini oshirib, global Blokcheyn olamida o‘z o‘rnini egallashiga imkon mavjud.

Kriptovalyutalar bozorining narxi bitkoin hisobiga oshib bormoqda. Uning bozordagi ulushi qariyb 70 foizga teng. Shu bilan birga ikkinchi yetakchilik o‘rnini egalluvchi **efirium (Ether)** kriptovalyutasining narxi ham tobora o‘sib bormoqda va hozirda **1300 dollarga teng**, ulushi esa **\$153 mlrd** gacha yetdi. Kriptovalyuta bozorining kuchli beshtalik orasida **steyblekoin Tether** (ulushi — **\$24,4 mlrd**), **Litecoin** (ulushi — **\$11 mlrd**) va **Bitcoin Cash (\$8 mlrd)** ham kiradi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqqan holda o‘zbek milliy valyutasi – so‘mni ham qisman yoki qandaydir chegaralangan optimal nisbatlarda kriptovalyutali ko’rinishga hamda so‘mni bu bilan bog’liq bo’lgan blokcheynga o’tkazish mamlakatimizdagi bir qancha moliyaviy muammolarni muvaffaqiyatli ravishda hal qilish imkonini berar edi. Shu jumladan:

- Joriy bank operatsiyalarining shaffofligini va tezkorligini oshirish;
- Davlat sektori samaradorligini va uning ishlash tezligini oshirish;
- Ikkilamchi va yashirin bank sektorini yo’q qilish yoki uni nazorat ostiga olish;
- Davlat apparatidagi byurokratiyani yengish va korrupsiyaga qarshi samarador kurashish;
- Soliqlar to’lash jarayonini mukammallashtirish orqali, soliq to’lamaslik xolatlariga qarshi samarador kurashish;
- Kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishiga yangi innovatsion imkoniyatlar yaratish;
- Kriptovalyutalar va ICO mexanizmlari yordamida xalqaro valyuta-kredit resurslarini O’zbekiston iqtisodiyotiga keng miqyosda jalb qilish;
- Iqtisodiyotga bo’lgan dollar va boshqa turdagи valyutalar bosimini kamaytirish va shu asosda so‘mning raqobatbardoshligini oshirish;
- Korxona, tashkilot, xususiy tadbirkorlar hamda jismoniy shaxslar uchun yangi, qulay va samarador kredit mexanizmlarini ishga tushirib yuborish;
- Moliya-kredit muassasalarining ishini yanada takomillashtirish;
- Ichki moliyaviy resurslarni ishlatishda mobillilikni ta’minalash va boshqalar. Bunday xatti-harakatlarning muvaffaqiyatli ravishda rivojlanishi uchun hozirgi kunda mamlakatimizda **to’rt xildagi** yo’nalish **taklif** etish mumkin:
  - Birinchi ssenariyda **bit so’m** muomalaga chiqarilishi mumkin. O’zbek milliy valyutasini blokcheynga va raqamli formatga o’tkazish unga bir qancha afzalliklar berishi mumkin, ammo bu holda bir qancha muammolarni qonunchilik asosida to’g’ri hal qilish kerak bo’ladi.

• Ikkinch yo'nalishda O'zbekistonning mustaqil davlat blokcheyn tizimi tashkil qilinadi va u o'zida turli moliyaviy institutlarning funktsiyalarini qamrab oladi. Bunday institutlar jumlasiga banklar, depozitariylar, pensiya fondlari, soliq idoralari va boshqalarni kiritish mumkin. Bu amal soliq to'lash va mablag'larni fondlarga o'tkazish ishlarini nisbatan osonlashtirish va jarayonlarni to'liq avtomatlashtirish imkonini beradi.

• Uchinchi imkoniyat esa kriptovalyutani alohida tashkilotlarda yoki hududlarda hayotga tadbiq qilinadi va bu sohada yetarlicha amaliy tajriba to'planganidan so'ng, bu ish respublika miqyosida amalga oshiriladi (masalan, O'zbekiston Respublikasidagi ochiq iqtisodiy hududlarda yoki chet ellik mutaxassislar ishlaydigan innovatsion qo'shma korxonalarda).

• To'rtinchi imkoniyat esa Rossiya davlatidek Markaziy bank tomonidan raqamli kriptovalyutalar bilan ishlashni amalga oshiradigan pilot loyihani ishga tushirishdir (mastercheyn loyihasi). Ushbu platforma bozor ishtirokchilarining elektron usulda o'zaro ma'lumot almashinishi va blokcheynlarda identifikatsiya qilinishi uchun mo'ljallangandir. Bu tizim asta-sekin, kriptovalyutalar bilan ishlash tajribasi oshib borgan sari bir qancha davlat interaktiv xizmatlarining ham navbatma-navbat blokcheynga o'tkazilishini ta'minlashi mumkin.

Respublikamizda kriptovalyuta bo'yicha malakali mutaxassislarning juda kamligi va bu sohadagi tajriba ozligini hisobga olgan holda bu yo'nalishda malakali mutaxassislar tayyorlashni ham amalga oshirish zamon talabi bo'lib qolmoqda. Lekin blokcheyn texnologiyalarni hayotga tadbiq qilish va o'zbek kriptovalyutasini chiqarish innovatsion g'oyasini qadam ba qadam amalga oshirish hozirdanoq boshlab yo'lga qo'yilishi kerak bo'lgan hayot taqozosidir. Chunki dunyodagi ko'pchilik rivojlangan mamlakatlar o'zlarining milliy yoki korporativ kriptovalyuta loyihamini amalga oshirmoqdalar va ular keyinchalik barcha raqamli kriptopullarga egalik qilib, boshqa mamlakatlarni bu jarayondan siqib chiqarishga harakat qiladilar.

Davlatning monetar siyosatidagi eng muhim amallardan biri pul emissiyasini nazorat qilish bo'lgani uchun, yaqin kelajakda jahon miqyosida ishga tushib ketishi kutilayotgan kriptovalyutalar tizimidan voz kechish mamlakatdagি moliya-kredit tizimini va uning jahon moliya kredit tizimi bilan aloqalarini sezilarli ravishda chegaralashga va uni izdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Respublikaga innovatsion iqtisodiyotni tezkorlik bilan rivojlantirish hamda turli xildagi innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun ICO (Initial Coin Offering) mexanizmini qonuniylashtirish va joriy qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Bunda O'zbekistonda ishlab chiqariladigan mahsulotlar va xizmatlar bilan ta'minlangan tokenlar chiqarish va ularni ichki hamda tashqi bozorda realizatsiya qilib, yig'ilgan mablag'lар tegishli loyihalarni moliyalashtirish uchun ishlatilar edi.

Masalan, ICO vositasida chiqarilgan UzCotton kriptovalyutasining har biri bir kilogram yoki bir tonna paxtaga ekvivalent bo'lishi mumkin. Demak, uni sotib olganlarga hosil yig'ib oligandan so'ng, ularning tokenlari miqdoriga teng bo'lган paxta yoki tola yetkazib beriladi. UzGold kriptovalyutasining bittasi bir gram oltinga ekvivalaent bo'ladi, demak, loyiha amalga oshganidan so'ng, bunday tokenlar evaziga tokenlar egalari jahon birjasidagi narxlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasida zarb qilingan oltin tanga yoki valyuta beriladi. Agar innovatsion loyiha quyosh yoki shamol elektrostansiyasi qurish bo'lsa, bitta UzEnergo kriptovalyutasi bir kilovatt energiyaga teng bo'ladi va demak, yig'ilgan pulga qurilgan quyosh elektrostansiyasi ishga tushirilganidan so'ng, kriptovalyutani sotib olgan insonlar yoki tashkilotlar oldingi pastroq bo'lган narxlarda tokenlariga mos bo'lган elektroenergiyadan foydalanishi mumkin bo'ladi.

Blokcheyn sohasini hozirdanoq maktab fanlariga kiritib borish lozim, universitetlarda o'qitib, hayotga tatbiq qilishimiz kerak. Xalqimizda Blokcheyn tarmog'ida ishslash, daromad qilish, pul jalg qilish, kriptovalyutalar bilan ishslash imkoniyatlari haqida targ'ibot va tushuntirish ishlarini olib borishimiz kerak. Yuqorida tavsif etilgan g'oyalarni amalga oshirish jamiyatimizda raqamli iqtisodiyot sohasida o'ziga xos ilmiy-texnologik inqilob yaratish edi va pirovard natijada mamlakatimiz tez sur'atlarda innovatsion rivojlanish yo'liga o'tib, rivojlangan mamlakatlar qatoridan munosib o'rinn egallay olar edi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Алекс Форк. Bitcoin. Больше чем деньги. 2014, 280 стр.
2. Andreas M. Antonopoulos. Mastering Bitcoin: Unlocking Digital Cryptocurrencies. 2014, 298 pages.
3. Don Tapscott, Alex Tapscott. Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin is Changing Money, Business, and the World, 2016, 324 pages.
4. Paul Vigna, Michael Casey. The Age of Cryptocurrency: How Bitcoin and the Blockchain Are Challenging the Global Economic Order. 2017, 384 pages.
5. Melanie Swan. Blockchain: Blueprint for a New Economy, 2017, 152 pages.
6. R.H. Ayupov, G.R. Baltabaeva. Raqamli valyutalar bozori: innovatsiyalar va rivojlanish istiqbollari. T.: TMI, 2018, 160 bet